“O‘zbektelekom” AKda 2026-yilning 9 oyligi uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT

I. Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori bilan joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi doirasida “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi 2025-yil yakunlari bo‘yicha baholandi. Hozirgi vaqtda Komplaens departamenti tomonidan reyting baholash natijalarini yanada yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta’minlash, ochiqlikni ta’minlash sohasidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash va ularning faoliyatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmoni qabul qilingan. Farmon bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etilgan. 2025-yil natijalariga binoan “O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) ochiqlik reytingida 87,5 ball to‘plab, 17 pog‘onaga ko‘tarilib, “yashil” toifaga erishgan.

Matbuot xizmati bilan hamkorlikda Kompaniyaning asosiy veb-sayti (https://uztelecom.uz/) yangilandi va qayta tarkiblashtirildi. “Ochiq ma’lumotlar”, “Ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar”, “O‘zbektelekom” AK faoliyati ochiqligi ko‘rsatkichlari” bo‘limi yaratildi.

Ochiqlik indeksi bo‘yicha 84 ta ko‘rsatkich yuzasidan Kompaniyaning barcha mas’ul tarkibiy bo‘linmalaridan ma’lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish va Kompaniya saytiga joylashtirish ishlari tizimli ravishda belgilangan muddatlarda amalga oshirib borilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Joriy yilning 9 oyi davomida Komplaens departamenti tomonidan Kompaniyaning ichki hujjatlarini aktuallashtirish va amaldagi qonunchilik talablariga moslashtirish maqsadida bir qator ichki hujjatlar qayta ko‘rib chiqildi.

Kompaniyaning 2026-yil 30-yanvardagi 61-son buyrug‘i bilan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish bo‘yicha nizom” aktuallashtirildi va yangi tahrirda tasdiqlandi.

Kompaniyaning 2026-yil 22-iyundagi 261-son buyrug‘i bilan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi nizom” ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Bundan tashqari, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi komplaens nazorat tizimida jarayonlarni avtomatlashtirish, inson omilini minimallashtirish va tizim faoliyatini raqamlashtirish maqsadida Kompaniyaning manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga oid masalalar bo‘yicha aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar bilan ishlash tizimi to‘liq raqamlashtirildi. Bunda aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan murojaatlarni yagona elektron tizim orqali qabul qilish, ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va ijroga yo‘naltirish ishlari amalga oshirilmoqda.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari yiliga bir marotaba yilning birinchi choragida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining maxsus https://e-anticor.uz/ platformasida o‘tkaziladi. 2026-yilda baholash natijalariga ko‘ra Kompaniyada 2 ta “Yuqori”, 4 ta “O‘rta” va 21 ta “Past” darajadagi xatar Komplaens departamenti tomonidan aniqlanib, platformaga kiritilgan. Agentlik tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi asosida Kompaniyada xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi va Agentlikning maxsus https://e-anticor.uz/ platformasiga joylashtirildi.https://e-anticor.uz/https://e-anticor.uz/

Ma’lumot uchun,

- 2025-yilda o‘tkazilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida aniqlangan 3 ta yuqori darajadagi korrupsiyaviy xatarlarni pasaytirish va bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida 2026-yilda 1 taga qisqarib 2 ta qolgan.
- 2025-yilda o‘tkazilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida aniqlangan 11 ta o‘rta darajadagi korrupsiyaviy xatarlarni pasaytirish va bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida 2026-yilda 7 taga qisqarib 4 ta qolgan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida aniqlangan yuqori va o‘rta darajadagi xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarning mas’ul bo‘linmalar tomonidan amalga oshirilishi nazorat qilib borilmoqda.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonuni hamda Kompaniyaning “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida nizom” talablari asosida joriy yilda Kompaniya ijroiya apparatining boshqaruv xodimlari tomonidan 226 ta yillik, 35 ta ishga qabul qilingandagi va rotatsiya munosabati bilan 46 ta, jami 307 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya, Kompaniya tarkibidagi filiallar boshqaruv xodimlari tomonidan 245 ta yillik, 745 ta ishga qabul

qilingandagi va rotatsiya munosabati bilan 785 ta, jami 1 775 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya to‘ldirildi. Kompaniya bo‘yicha to‘ldirilgan jami 2 082 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar to‘liq tahlil qilindi.

Tahlil natijasida Kompaniyaning 1 ta filialida yaqin qarindoshlarning bir-biriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunuvi bilan bog‘liq manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanib Nizom talablari asosida Odob-ahloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasining tegishli qarori bilan tartibga solindi. Xodim boshqa lavozimga o‘tkazildi.

Kontragentlarni tekshirish

Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilish va Kompaniya bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish bo‘yicha hisobot davrida 285 ta xarid jarayoni kontragentlari, 31 ta hamkor kontragentlar va 200 ta dillerlik kontragentlar tekshirildi.

Xarid jarayoni kontragentlarini tekshirish natijasida 269 ta ijobiy, 16 ta salbiy xulosa olindi. Salbiy xulosalar bo‘yicha 5 ta kontragent affillangan tashkilot ekanligi, 8 ta kontragent o‘zaro muvofiqlashtirilgan harakatlarni olib borganligi, 3 ta kontragentda esa soliq va majburiy to‘lovlardan qarzdorlik mavjudligi aniqlandi va ularning barchasi o‘rnatilgan tartibda xarid jarayonlaridan chetlashtirildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Hisobot davrida Kompaniya hamda uning tarkibidagi filiallarga jami 780 ta yangi xodim ishga qabul qilingan bo‘lib, ularning barchasi o‘rnatilgan tartibda tekshirildi.

Shuningdek, Kompaniyaning 2025-yil 17-martdagi 120-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma” asosida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni suhbatdan o‘tkazish jarayonida Komplaens departamenti xodimlarining ishtiroki ta’minlandi.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha umumiy o‘quv seminarlarida jami 291 ta xodim ishtirok etdi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarida 880 nafar xodim o‘qitildi.

Joriy yilning fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-270-son Farmoni hamda Ochiqlik indeksi bo‘yicha Kompaniyada o‘quv ishlari amalga oshirildi.

Sentabr oyida Kompaniyaning TMS Hub filiali tomonidan G‘arbiy, Janubi-G‘arbiy hamda Sharqiy filiallari hududiy menejerlar va bosh muhandislari uchun tashkil etilgan maxsus o‘quv kursi davomida “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi” mavzularida ham qo‘shimcha o‘quv kurslari tashkil etildi.

Shuningdek, hisobot davrida Kompaniyaning barcha hududiy filiallari xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha filiallarga borgan holda o‘quv seminarlari tashkil etildi.

Joriy yilning ikkinchi yarim yilligi davomida ham Kompaniya filiallariga chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joylarda seminar-treninglar o‘tkazish ishlari davom ettirilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida ochilgan “Virtual akademiya”da “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish”, “Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish”, “Davlat xizmatida halollikni ta’minlash” mavzularida Kompaniyaning 880 nafar xodimi o‘z malakasini oshirib, tegishli sertifikatlarga ega bo‘ldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi bo‘yicha xodimlarning xabardorlik darajasini 80 foizga yetkazish maqsadida o‘qitish rejasi va formatlari qayta ko‘rib chiqildi hamda tegishli vazifalar belgilab olindi. Jumladan, joriy yilning sentabr oyida Kompaniyaning korporativ elektron pochta manzili mavjud bo‘lgan jami 6 012 nafar xodimning pochta manzillariga Kompaniyada qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki hujjatlar, jumladan, Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida nizom, sovg‘alar va ko‘ngilochar tadbirlar to‘g‘risida nizom, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida nizom hamda korrupsiyaviy holatlar va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari haqida ma’lumotlar yuborildi.

Shuningdek, Kompaniyaning korporativ elektron pochta manziliga ega bo‘lgan xodimlari ro‘yxatini muntazam yangilab borish va korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma’lumotlarni davriy ravishda xodimlarning korporativ elektron pochta manziliga yuborish orqali ularning xabardorligini oshirib borish belgilandi.

Bundan tashqari, Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi samaradorligini o‘rganish maqsadida xodimlar o‘rtasida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada qatnashgan xodimlarning soni jami 121 nafarni tashkil etdi.

Kompaniya xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki hujjatlar bilan tanishtirish jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida Google Sites, Google Forms va Google Sheets asosida elektron platforma ishlab chiqildi. Platforma orqali xodimlar korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlar bilan istalgan qurilma orqali tanishishlari, tanishganliklarini elektron tarzda tasdiqlashlari hamda olgan bilimlarini mustaqil ravishda baholash uchun test topshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jarayon bo‘yicha barcha ma’lumotlar administrator panelida (Dashboard) avtomatik ravishda shakllantiriladi va statistik tahlil yuritiladi. Ayni paytda platforma test (sinov) rejimida bo‘lib, uni to‘liq ishga tushirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda. (https://sites.google.com/view/anticor-hujjatlar)

VI. Monitoring va nazorat

Kompaniyaning 2026-yil 12-avgustdagi 325-son buyrug‘iga muvofiq Kompaniyada ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari asosida Korrupsiyaga qarshi menejment tizimini takomillashtirish maqsadida navbatdagi ichki audit o‘tkazish uchun

ichki auditorlar guruhi tashkil etildi va tizim faoliyatining muvofiqligi hamda natijadorligi tekshirildi.

Kompaniyada o‘tkazilgan audit natijalariga ko‘ra 8 ta nomuvofiqlik bayoni rasmiylashtirildi, ularni bartaraf etish uchun o‘rnatilgan tartibda muddatlar belgilanib, ijrosi nazoratga olindi. Tizimni yaxshilash bo‘yicha 11 ta tavsiya berildi.

Shuningdek, ISO 37001 xalqaro standarti hamda Kompaniyaning 2024-yil 29-oktabrdagi 343-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi to‘g‘risida Nizom” talablari muvofiq 8 ta jarayon xaritasi ishlab chiqilgan.

ISO 37001 xalqaro standarti hamda Nizom talablari asosida Kompaniyaning tarkibiy bo‘linmalaridan har chorakda jarayon xaritasi hisobotlari yig‘iladi. Ushbu hisobotlar asosida Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi jarayonlari samaradorligini baholash uchun umumiy hisobot tuziladi va Kompaniya rahbariyatiga taqdim etiladi.

Bundan tashqari, hisobot davrida Kompaniyaning Markaziy, Sharqiy, Janubiy, G‘arbiy, Janubi-G‘arbiy hamda Shimoliy filiallarida korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlar talablari ijrosini monitoring qilish bo‘yicha o‘rganishlar hamda xodimlarni qonunchilikdagi o‘zgarishlar bilan tanishtirish va huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida o‘quv seminarlari tashkil etildi.

VII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari

Hisobot davrida Kompaniyaning manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga qarshi masalalar bo‘yicha aloqa kanallari orqali jami 61 ta murojaat kelib tushdi. Shu jumladan:

- ishonch telefon orqali (+998555017787) – 59 ta;
- telegram bot kanali orqali – 1 ta;
- elektron pochta orqali – 1 ta.

Murojaatlar umumiy masalalarga oid bo‘lib, ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra korrupsiya holatlari aniqlanmadi.